



## ABDULLA QODIRIYNING SATIRIK VA YUMORISTIK RUHDAGI KICHIK ASARLARI TAHLILI

**Rayhonova Gulnoza<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Jurnalistika fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: O'zbek tili yo'nalishi

3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5998366>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01 -fevral 2022

Ma'qullandi: 05 -fevral 2022

Chop etildi: 10 - fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

*Muxbir, isrof, ro'za, xatm,  
zakot.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy asarlarining naqadar  
serqirra va rang-barangligi, xususan, uning satirik va yumoristik  
ruhdagi kichik asarlari tahlili qilinadi.*

So'z insonning eng kuchli quroli.<sup>1</sup> Insondagi hech bir narsa so'zchalik kuchli ta'sir kuchiga ega emas. So'z bo'lganda ham har qanday so'z emas, balki badiiy, adabiy til me'yorlariga amal qilgan so'zdir. Uni mahorat bilan go'zal tarzda yetkazib beruvchi ijodkor esa u dunyodagi eng daxshatli texnik quroldan ham kattaroq kuchga ega bo'ladi. Mana shunday qudratli qurolni ishlata olgan buyuk ijodkor, yozuvchilardan biri Abdulla Qodiriydir.

Buyuk va zabardast ijodkorimiz bo'lgan Abdulla Qodiriy XX asrning ko'zga ko'ringan, asarlari qalbimizdan joy olishga ulgurgan, fidoyi insondir. U butun umr halol, rostgo'y va haqiqatparvar inson bo'ldi, hattoki uning har bir asarining bosh qahramonlarini shunday bo'lishiga da'vat etgan. Misol uchun uning birgina suddagi nutqiga ahamiyat beradigan bo'lsak, unda shunday jumlar bor: "Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa "ih" deydgan yigit

emasman... Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmog'on sodda, go'l, vijdonlik yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi, jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir".<sup>2</sup>

Haqiqatdan ham, Abdulla Qodiriy haqiqatgo'y, rost so'zni so'zlaydigan va shu yo'ldan hech qachon qaytmay kurashgan buyuk so'z san'atkoridir. U o'z asarlarida ham hamisha shu haqiqato'ylikni targ'ib qildi.

"Abdulla Qodiriyning prozasi va publisistikasi bugun ham o'zbek yozuvchilari uchun foydali saboqlarga to'la. Masalan, o'z ijodida, ayniqsa, satirasida Abdulla Qodiriyning o'zbek folklorlarida eng ko'p tarqalgan qudratli vositalaridan juda keng va muvaffaqiyatli foydalana olgan. Abdulla Qodiriyning ko'p foydalangan bunday vositalaridan biri—

<sup>1</sup> Yunon olimi Aristotel.

<sup>2</sup> 1926-yil iyundagi suddagi nutqidan.



pichingdir”.<sup>3</sup> Ya’ni asarlarida piching va shunga o’xshash kinoya va tashbehnlarni o’z me’yorida qo’llay olgan ayniqsa satirik va yumoristik asarlarida.

Yozuvchi “Turkistonning—ichi sonida “muxbirlarimizdan” bittasi bir narsani yozubdirki, o’qib ko’rib, naq muxbirning og’zini yorib yuborgim keldi”—deb gap boshlaydi o’zining “Og’zingga qarab gapir” nomli xangomasida. Bu asar satirik ruhdagi asarning yorqin namunasi. Undagi voqealar yashirin emas, balki ochiq-oydin holatda kulgi ostiga olingan. Shu o’rinda satira haqida aytib o’tilishi o’rinlidir.

Satira lotincha so’z bo’lib, “qurama, har xil narsa” degan ma’noni ifodalaydi. Satira—komiklikning bitta turi bo’lib, tasvir obyektni ayovsiz kulgi vositasi orqali anglashdir. Voqelikni badiiy aks ettirishning o’ziga xos badiiy ko’rinishi bo’lib, unda jamiyatdagi bema’ni, asossiz, noto’g’ri hodisalar, illatlar fosh etiladi. Voqealarning real ko’rinishini o’zgartirib, oshirib, bo’rttirib, mubolag’a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko’pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali Satira obyektiga “ishlov” beriladi. Satira muallifi komiklikning boshqa turlaridan ham foydalanishi mumkin, biroq satir uchun salbiy tus berib, keskin ifodalangan estetik obyekt xarakterli hisoblanadi. Qo’shimcha tarzida shuni aytib o’tish o’rinliki, A.Qodiriy o’zining satirik ruhdagi asarlariga Julqunboy, Dumbul va Tarsak kabi taxalluslarini qo’llagan. Asarga qaytadigan bo’lsak, unda shunday mazmudagi gap keltiriladi:

— “Isroflik to’y...Samarqandda o’rtoq Qurbi o’g’illarini kestirdi. 3-4 kun to’y berdi, bir-ikki milliard pul ketdi... To’yga isrof qilgan aqchasini “Ko’mak uyushmasiga”<sup>4</sup> berganda foydali bo’lar edi...”<sup>5</sup>

Xususan, A. Qodiriy bu yerdagi vaziyatda muxbirga murojaat qilish orqali butun bir boshli o’zbek xalqini g’aflat uyqusidan uyg’otmoqchi bo’lmoqda. Bizning o’zbek millatimizdagi dolzarb masalarlaridan biri bu—to’ydir. Haqiqatdan, o’tmishda ham, hozirda ham barcha ota-ona yig’ib terganini, uyidagi bor narsasini ham sotib bo’lsa ham, orzu-havasli to’y qilishni xohlashadi, vaholanki, uning ertasiga yoki kelajakda kutiladigan falokatlarni yoki moddiy yetishmovchiliklarni hisobga olishmaydi. Biz sevib tomosha qiladigan o’zbek filmlaridan birida shunday jumla keltiriladi: “To’y to’ydek bo’lsin, mahallada duv-duv gap bo’lsin”. Nahotki, baxt pulda yoki hashamatda emasligini ota-onalar, qarindoshlar va umuman butun bir jamiyat anglab yetishmasa? Nahotki, butun bir boshli xalq uyquda bo’lsa? Shu o’rinda Niyoziy ustozning she’rlaridan bir parchasini keltirib o’tish o’rinlidir:

“Bu na vahshat, na jaholat er, qiz-u pir-u juvon,

Domi g’aflatdan xalos o’lmoqqa imkon istamas”.<sup>6</sup>

A.Qodiriy muxbirga qarata bu gaplarni aytish mening ham qo’limdan keladi, yozaman desam sendan ham yaxshi yozaman, ammo har bir gapda andisha kerak, yaniki “so’zni aytgil uqqang’a...” —

<sup>3</sup> . Izzat Sulton. SSSR fanlar akademiyasining muhbir a’zosi.

<sup>4</sup> . Maorif ishlari uchun moddiy yordam yig’uvchi ixtiyoriy tashkilot.

<sup>5</sup> . “Turkiston” jurnalining 41-soni.

<sup>6</sup> . H.H.Niyoziyning “Dardiga darmon istamas” musallasidan.



degan mazmundagi gapni keltiradi va asarini muxtasar qiladi.

Yozuvchi bu yo'nalishni ko'plab asarlariga dolzarb mavzu qilib olgan. Shu o'rinda "Baxtsiz kuyov" pyesasini ham keltirib o'tish o'rinlidir. Unda ham to'y mojarolari va kamchiqimlik to'g'risida aytib o'tiladi. Dabdababozlik, hashamdorlik, o'z-o'zini ko'z-ko'z qilish uchun katta to'y qilish oqibatida ikk yosh, yigirma besh yoshli Solih va o'n olti yoshli Rahimanining umri xazon bo'ladi. Xo'sh ularning aybi nima edi? Ularning ham yashashga haqqi bor edi? Ular ham hali misli onasining bag'rida bir go'dak misoli edi. Ular hali hayotning achchiq haqiqatlari anglamagan, o'zining ertaknamo hayollari bilan band bo'lib yurgan soddadil va mehribon qalb egalari edi. "Xo'sh, unda ularni kim o'ldirdi?"—degan savol paydo bo'lishi aniq, Solihning amakisi, ota-onasi yo'qligini bildirmay o'stirgan Abdurahimning uylantirish qistovimi yoki Solihning qaynotasi, Rahimaning otasi bo'lgan Fayziboyning orzu-havasimi? Balki, domlanning sarpo haqidagi soliqlari yoki boyning sudxo'rlik evaziga bergan puli, ularni bevaqt o'limiga sabab bo'lgandir. Ammo, aksincha, insonlarning hayotga bir tomonlama qarashi, jamiyatdagi dabdababozlik va asosiysi, ularning nafs iikki yoshning umriga nuqta qo'ydi. Bejizga Ahmad Yassaviy nafsni tepgil deb aytmaganlar:

Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,  
Yo'ldin ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur.  
Yotsa, qo'nsa shayton bila hamroh bo'lur,  
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.  
A.Qodiriy o'zining "Ro'za, iftor, xatm, zakot" nomli qisqa yumiristik ruhdagi asarida ham jamiyatdagi nuqsonlarni keskin tanqid qiladi. Eng avvalo, yumor haqida qisqacha aytib o'tish joizdir.

Yumor—kulgi bilan xayrixohlikni o'zida mujassam etgan komiklik turidir. Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy masalalardagi, xususan, ayrim kishilardagi ba'zi kamchilik, nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan obyektning yo'qotilishiga tarafdor emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi. Yengil tanqid, hazil ruh bilan yumor satiradan biroz farq qiladi. Satirik asarda ijtimoiy hayot zaharxanda kulgi orqali fosh etilsa, xarakterdagi nuqsonlar hazil-mutoyiba, kinoya bilan tanqid qilinadi. Satirada yumor unsur bo'lganidek, yumorda ham satira unsuri bor.

Bilamizki, shariatimizda ro'za, iftor, xatm va zakot farz qilingan amallardan hisoblanadi. Ularni bajarish musulmonlar uchun farzdir. Ammo ularni imkoniyati bo'lsa ham bajarmaydigan va eng yomoni, farzli amallarimizni yuziga niqob qilib olgan yomon amalli insonlar ham bor oramizda. A.Qodiriy ham aynan shu shariatdagi amallarimizni tashqi tarafdin bajargandek qilib ko'rsatadigan odamlarni yumor orqali keskin tanqid ostiga oladi. Asarda eng birinchi navbatida, ro'za haqida gapirib o'tiladi. Ya'ni ro'za tutish kerakligi islom ta'limotida belgilab qo'yilgan, lekin bu degani hamma ishingni, ahli ayol-u farzandlaringni och holatda qoldir degani emas, aksincha, imkoniyati, sog'ligi va vaziyati to'g'ri kelsagina ro'za tutish aytiladi. Ammo, kambag'al odamning tinimsiz ro'za tutishi qiyin ekanligi aytib o'tiladi asarda. Tinimsiz qora mehnat qilgani, buni ustiga ro'za mahalida bir burda nonga zor bo'lgan kambag'al va faqir bo'lgan insonlar bor, ular ro'zada iftorlik mahali og'izlarini bir qultum suv va bir



burda non bilan ochganlarida, boylar yog'lik-jazlik palov bilan iftirlik qilishi yaxshimikan deyiladi? Bundan tashqari iftorlik qilgan boylar, nega faqatgina "dam chiqarsa" tahorati ushalmagan boylarnigina mehmon qiladi? Qani adolat, qani insonning insonga bo'lgan mehr-u muhabbati? Yana shunday paytlar bo'ladiki, kambag'al odam bir necha kun ro'za tuta olmay qolsa, ularni kalaka qilib ustidan kulishadi.

"Ishchi, nafaqai ahli ayol<sup>7</sup> uchun ro'za tutmay ishlasa, tag'in sizning ta'natuvangizga nishon bo'lsinmi? Og'zi qiyshiq bo'lsa ham boy gapirsinu—boyvachcha gapirsin; kambag'alni tuyaning ustida it qopsinmi?

Bo'lmagan gap, yarashmagan qiliq, yopishmagan shirach!"—deb aytadi yozuvchi.

Ro'za oyining muhim nuqtalaridan biri, iftor va ta'na-to'va masalasi bo'lsa, ikkinchisi xatmdir. Xatmni ko'pchilik qachon qiladi degan savolga, yozuvchi ochiq-oydin javob bergan:

"Ikkinchisi xatm bo'lib, bu masala ustida uzoq to'xtamaymiz. Chunki masala ochiq. Birov xatm qildirar ekan va yo bu yilgi ro'zada xatm ko'paygan ekan, "Eshak eshakdan qolsa qulog'ini kesar", degan so'zdir, maydonda bundan boshqa narsa yo'q".

Zakot ham shu yo'sunda amalga oshiriladi deb aytadilar Abdulla Qodiriy. Shu o'rinda Ro'ziboy hojining zakot berishini misol qilib keltirib o'tiladi:

—"Xo'-o'sh, deganingizdan bilsak, qani cho'tni oling-chi—besh yuz million tramvayda kisavurga oldirdik; bir milliard vagonda konduktorga pora berildi, olti yuzni domaxonaning ishtrafiga to'ladik, bir

yarim milliardlik mol Maskov yo'lida yo'qoldi... Jamuljam bo'ldi: uch milliard olti yuz. Bu yilgi beradigan zakotimiz hisobi uch milliard besh yuz bo'lsa... Tavba, buni qarang-a... Bergan zakotimiz hisobdan bir oz osha tushibti!.. Xayr, bizdan ketsa-ketsun, dargohida qabul bo'lsa bas!"

Bu o'rinni o'qigan inson kulishini ham, yig'lashini ham bilmay qoladi. Nahotki, insonlar nafaqat bandasini, balki yaratgan parvardigorni ham aldamoqchi bo'lishadi. Ularning qo'lida tarbiya topayotgan yosh avlodning ahvoli qanday kechadi, ular ham kelajakda o'z otalaridek bo'lmaydi deb kim kafolat bera oladi. Zero, "Tarbiya biz uchun yo hayot—yo mamot, yo najot—yo halokat, yo saodat—yo falokat masalasidir"<sup>8</sup>—deyilgan hikmatli so'z bejiz aytilmagan.

Bu ham bir zamonaning zayli ekanda. "Zamonaning zayli" nomi bilan nomlangan Abdulla Qodiriyning keying yumoristik ruhdaqi maqolasida ham insonlardagi salbiy illatlar keskin fosh etiladi. Unda shu jumlarlar keltirib o'tiladi:

"Zamonaning zayli ekan-da. O'zbek millatining bir necha asrlik turmushi ko'z oldinga kelib saf tortsa, millatning hozir mulla, eshon, azayimxon, folvun, Maxdum tabib, Mamarasul tabib va maxdumlarni—ikkinchi safga tizib, tomosha qilsang juda bir mudhish va qo'rqinchlik manzara bo'lar edida".

Bilamizki, o'zbek xalqi xonlik tuzumi davrida hukmronlik monarxiya tartibotini, keyinchalik sotsial tuzum davrlaridagi tartibni boshdan kechirdi. O'sha paytlarda o'zining deyarli to'liq ilmi bo'lmay mulla, eshon, folvin yoki maxdum bo'lganlarning soni anchagina bo'lgan. Albatta, guruch kurmaksiz bo'lmasligi tabiiy holdir.

<sup>7</sup> . oilasini boqish uchun.

<sup>8</sup> .Abdulla Avloniy



Shunday insonlar davlat rivojini, mavqeyini tushib ketishiga asosiy aybdordirlar. Shu o'rinda G'afur G'ulomning eng mashhur va biz sevgan asari ya'ni "shum bola" qissasidagi bola va eshonning nutqi yodga keladi:

"Oyoq-qo'ling chaqqongina, epchil yigitsan. Sen ham axir qarab turmasdan, boshqacharoq yo'l bilan bo'lsa ham tirikchilikning payidan bo'lsang edi, o'g'lim... Axir kissa-karmon degan gaplar ham bo'ladi. Naqdina pul—ham yengil, ham qimmat, ham yashirishga oson bo'ladi. Naqdina bo'lsin, bolam, naqdina bo'lsin.."

Yoki bo'lmasam, yana shu qissadan boshqa misol keltiradigan bo'lsam:

"Shaharning bir chekkasidagi xaroba uyni nashavand-bangilar yig'iladigan takyaxonaga aylantirgan Hoji bobo ham o'zicha xudojo'ylikda Eshondan qolishmaydi. Biroq uning qilayotgan ishlari Xudoning aytganlariga mutlaqo teskari jarayondir".

Ammo, bu –hayot. Uning yozilmagan va biz bilmagan qonunlari juda-juda ko'p. keyinchalik, vaqti-soati kelib, bunday toifadagi insonlar ham bu hayotni tark

etishi mumkin, biroq hayot yaxshilik va yomonlik ziddiyati ustiga qurilgan, shuning uchun ham yashash qiziqarlidir balkim. A. Qodiriy o'zlari shu jumla bilan yakunlaydilar gaplarini: " Sizning ham davringiz kelgan edi. Endi tikanlar o'rniga gullar ochildi. Zog'lar o'rniga bulbullar qo'ndi. Bu ham zamonaning zaylidir!"

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Abdulla Qodiriyning har bir asarida teran va katta bir mazmun bor, yozuvchining har bir asarini qayta-qayta o'qisak, o'zimizga olam-olam mazmun va tushunchalar olamiz. Uning satirik va yumoristik mazmundagi maqolalar va asarlarida jamiyatning, xalqning turmushini yaxshilash kabi go'zal va mushtarak go'ya mujassamdir. . Bu asarlarni o'qigan har bir kitobxon o'ziga nafaqat estetik zavq, balki tariximiz, qadriyatlarimiz, tuzumimiz va eng muhimi, o'tmishimizning eng qiyin damlarini o'zining qalbi ila his etadi. Abdulla Qodiriy asarlarining qiymati va qadri ham shundadir va ular bebaho va durdona satirik va yumoristik asarlarimizning yorqin namunasi bo'lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Qodiriy kichik asarlari. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.T. 1969.
2. A.Qodiriy. Tanlangan asarlari. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. T.2018
3. B.Karimov "Jahon adabiyoti" jurnali. T. 2013.
4. O'zME. 1-jild. T. 2000.
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) saytidan